



XALQ DEPUTATLARI NAVOIY SHAHAR KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 26-fevral

VII-5-28-5-79-K/25

Navoiy shahar

Navoiy shahar mahalliy budjetining 2025-yil yil boshidagi aniqlangan erkin qoldiq mablag‘i hisobidan ajratiladigan mablag‘lar to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 126-moddasida belgilangan tartibda mahalliy budjetdan mablag‘ oluvchi budjet tashkilotlarini moliyalashtirish bo‘yicha takliflarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi Budget Kodeksining 27-, 99-moddalari, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 6-, 24-moddasiga asosan xalq deputatlari Navoiy shahar Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Navoiy shahar mahalliy budjetining 2025-yil yil boshidagi aniqlangan erkin qoldiq mablag‘i hisobidan 1-ilovaga muvofiq mablag‘ ajratilsin.
2. Navoiy shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi va tashkilot rahbarlari, shahar hokimligi ajratilgan mablag‘lardan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda maqsadli foydalanilishini, xususan, “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga qat’iy amal qilinishini ta’minlasin.
3. Navoiy shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (N. To‘xtayev), shahar G‘aznachilik xizmati bo‘limi (F. Xidirov)larga:
ajratilgan mablag‘lardan amaldagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq maqsadli va samarali foydalanilishini nazorat qilsin.
4. Navoiy shahar hokimligi devonxona bo‘limiga mazkur qaror nusxasini manfaatdor tashkilotlarga yuborish vazifasi yuklatilsin.
5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Navoiy shahar Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (A. Mirzayev) hamda Navoiy shahar hokimining birinchi o‘rinbosari – Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (O‘. Haqberdiyev) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



ERGASHEV
DILMUROD
BEKMURADOVICH

Xalq deputatlari Navoiy shahar
Kengashining
2025-yil 26-fevraldagi
VII-5-28-5-79-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Navoiy shahar mahalliy budjetining 2025-yil yil boshidagi aniqlangan erkin qoldiq
mablag'i hisobidan ajratiladigan mablag'lar**

T/r	Tashkilot nomi	Mablag' yo'naltirilishining maqsadi	Ajratilgan mablag' (ming so'mda)
1	Navoiy shahar hokimligiga	“Yoshlar daftari” jamg'armasiga	50 000
		“Ayollar daftari” jamg'armasiga	50 000
		“Fuqarolar tashabbusi” jamg'armasiga (“OPEN BUDJET”)	330 750
		Maxsus aloqa xizmati xarajatlari uchun	30 000
		Telefon xizmati	7 000
		Internet xizmati	49 200
		E-qaror tizimidan foydalanish uchun	52 800
		“Ijro.gov.uz” tizimidan foydalanish uchun	24 100
		Hrm.argos.uz tizimidan foydalanish uchun	9 600
		Ijara to'lovi qarzdorligi xarajati uchun	178 000
		Majburiy ijro byurosining ijro varaqasiga asosan ekspertiza xarajati hamda davlat boji xarajatlari uchun	178 900
2	Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi	Chet eldan kelgan o'qituvchilarni ijara to'lovi uchun	60 000
3	1-sonli sport maktabiga	Akfa va deraza-romlari sotib olish xarajati uchun	30 000
		Kabel sotib olish xarajati uchun	10 000
4	2-sonli sport maktabiga	Kurash gilami sotib olish uchun	40 000

Jami	1 100 350
-------------	------------------